



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

Mening dunyom befarqlik  
ummonida suzib yuruvchi  
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD  
(1856-1939)

# 2022

MAY  
№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
2-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-2**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

<b>1. Tajimuratov San'at Amanbayevich, Sapayeva Asal Rustamboyevna</b> OMMAVIY MADANIYATNING MA'NAVIYATGA TAHIDIDIGA QARSHI KURASHISH USULLARI.....	7
<b>2. Sh.Toshkentboyeva</b> HAR BIR ISHDA MEHR MUHIM, MUXABBAT MUHIM.....	9
<b>3. Umurzakov Uyg'un Abdusalipovich</b> O'ZBEKİSTONDA MAFKURAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA DIN OMILI.....	11
<b>4. Begbudieva P.Sh</b> SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF JADID SCHOOLS IN TURKESTAN.....	13



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### OMMAVIY MADANIYATNING MA’NAVIYATGA TAHDIDIGA QARSHI KURASHISH USULLARI

**Tajimuratov San’at Amanbayevich**  
Gurlan tumani 26-maktab o’qituvchisi  
**Sapayeva Asal Rustamboyevna**  
Gurlan tumani 28-maktab o’qituvchisi  
Telefon +998(93) 446 4770  
tazimuratovsanat0@gmail.com

**Annotatsiya:** maqolada globallashuv davrida milliy ma’naviyatimizga real tahdid bo’lib turgan ommaviy madaniyatning salbiy tomonlari va unga qarshi kurashish yo’llari bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** globallashuv, ommaviy madaniyat, tahidilar, axborotlar, mafkuraviy immunitet, global muammolar, antivirus, milliylik.

Hozirgi globallashuv davrida axborotlar olamida inson ma’naviyatiga bevosita ta’sir qiladigan, uning dunyoqarashini tubdan o’zgartirib yuboradigan turli xil g‘oyalar, xilma-xil fikrlar kundankunga ko’payib, rivojlanib bormoqda. Inson ma’naviy dunyosiga, uning turmush tarziga o’zining salbiy xususiyatlari bilan kirib kelgan ommaviy madaniyat ham shaxs hayotini tubdan o’zgartirib yuboradigan va bora-bora shaxsiyatini yo‘qotishga sababchi bo‘ladigan omillarning, g‘oyalarning yig‘indisi bo’lib, unga qarshi kurash o’zligini, milliyligini saqlab qolishga intiladigan har bir xalqning yuksak vazifalaridan biridir.

Insoniyat uchinchi mingyillikka qadam qo‘yar ekan o’tmishdan juda og‘ir meros bilan kelajakka bormoqda. Necha asrdan beri dunyoning turli burchaklarida irqchilik, segregatsiya, narkobiznes, terrorizm, qulchilik (hozirda biroz «madaniylashib» «odam savdosi» ko‘rinishiga kelgan) kabi global muammolar, insoniyatning tuzalmas kasalliklari bilan birga SPID, sil, rak, vaboden ham kuchli bo‘lgan bir epidemija, mafkuraviy poligonlar mahsuloti-ommaviy madaniyat ham paydo bo‘ldi. Har bir shaxsnинг tarixi, taqdiri bo‘lganidek har millatning, xalq, elatning o‘z tarixi, ma’naviyati, madaniyati bor va bular o‘z navbatida milliylikni vujudga keltiradi. Lekin butun-butun xalqlar uchun, jahon hamjamiyati uchun birdek qabul qilinadigan urf-odatlar, an‘analar bo‘limganidek yaxlit madaniyat yaratilmagan. Ommaviy madaniyat esa axloqsizlarning madaniyat deb atayotgan, va asosan yosh avlodning toza, sof ongiga zo‘r berib singdirilayotgan **virusdir**. Ommaviy madaniyat-mafkuraviy virus. Tarixi necha mingyilliklardan iborat xalqimizda ancha ilgari “antivirus” ishlab chiqilgan. Bu “antivirus”-milliy ma’naviyat, milliy g‘oya, milliy mafkura, milliylik, haqqoniy o‘zlik-tarix, ajdodlar merosi, kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglash hissidir. Ma’naviyatning o‘zi esa keng qamrovli, ko‘p qirrali tushuncha bo’lib, Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat qiladigan, vijjdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir».

Ommaviy madaniyat - bu bir qolip, hammani o‘z shakliga kiritib, o‘ziga moslab olishga harakat qiladi. Bilamizki, tabiatda faqat hayvonlar atrof-muhitga moslashadilar. Lekin insoniyat atrof-muhitga moslashmaydi, balki atrof-muhitni o‘z manfaatlariga muvofiq moslashtiradi, o‘zgartiradi.

Tarixdan ma’lumki, VII-VIII asrlarda Arab xalifaligi kuchayib, Yevropaning ba’zi hududlarini bosib oladi va u yerda o‘zlarining madaniyatini yaratib Yevropa madaniyatiga katta ta’sir o‘tkazadi; aynan musulmonlar yevropaliklarga qanday kiyinish kerakligini, taom tanovul qilish tartibi, musiqa, tasviriy san’at, me’morchilik va boshqa hayotning turli sohalarida ustozlik qilishgani bugun hech kimga sir emas , lekin nega bizning o‘zimizda juda katta yengilmas kuch-yuksak ma’naviyat, milliy madaniyat, tarixiy o‘zlik – teran tomirlar bo‘la turib allaqayerdan paydo bo‘lgan soxta, ommaviy madaniyat ta’siriga berilib, quyosh nuridan qochgan ko‘rshapalak



kabi qorong‘ulikka, zulmatga yashirinib, o‘zimizga mutlaqo yot-begona g‘oyalar ta’siriga tushib, ularning izdoshi – soyalariga aylanishimiz kerak? G‘arbning tushunarsiz musiqalariga yozilgan, o‘rinsiz tiqishtirilgan, tushunarsiz so‘zlarga e’tibor ham bermay yurakdag‘i hislarni, miyadagi xotira qobiliyatini, inson qalbidagi haqiqiy san’atga bo‘lgan e’tibor-sezgini asta-sekinlik bilan o‘chirib, o‘ldirib yo‘q qilib yuboradigan musiqalar sadosi ostida kuz shamoli tebratgan teraklar kabi beixtiyor tebranamiz. Nega?

Hozirgi vaqtida ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ommaviy madaniyatga qarshi tura bilish uchun quyidagi kurash usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lardi:

**Birinchidan, o‘zligini anglash, o‘zini va o‘zgalarni to‘g‘ri baholash,** ya’ni biz kimning avlodlarimiz, ajdodlarimiz kim bo‘lgan va kelajakdag‘i o‘rnimiz qanday va qayerda bo‘ladi, kabi savollar bilan jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni, voqeа hodisalar to‘g‘risida olingan informatsiyalarni aql tarozisidan o‘tkazib ular haqida haqqoniy xulosa chiqara bilish;

**Ikkinchidan, hushyor va fahmli** bo‘lish, ya’ni to‘rtinchchi hokimiyat – ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan ma’lumotlar ichidan ma’naviyatimizga tahdid soladigan g‘oya va mafkuralarning asl maqsadini o‘z vaqtida anglab olib ularga munosib javob qaytarish;

**Uchinchidan, yetarli ma’lumotga ega bo‘lish,** raqib to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmay turib kurashish usullarini va g‘alabaga olib boruvchi rejalar tuzib bo‘lмаганидек ommaviy madaniyat, uning salbiy xususiyatlari va boshqa ma’naviyatimizga tahdidli g‘oyalardan himoyalanish va ularga qarshi kurashish uchun ular haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lishimiz kerak.

**To‘rtinchidan, bilish,** ya’ni haqiqiy san’at namunalarini, go‘zallik timsollarini soxtaliklar mahsullaridan farqini va qadrini bilish.

Farzand tarbiyasida ota-onasi va maktab hamkorligini kuchaytirish zarur. Ba’zi ota-onalar hali hamon noto‘g‘ri yo‘nalishdalar. Farzandini kiyintirib, qornini to‘ydirib qo‘liga telefon olib berib qo‘yishadida ularning tarbiyasiga bee’tibor bo‘ladilar. Maktablarda bo‘lib o‘tadigan ota-onalar majlislariga ko‘pincha faqat onlar kelishadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Baxtiyor oila” kitobida: “Och inson ovqat yemasa qorni to‘ymaydi. Xuddi shuningdek tarbiya bo‘lmasa, inson tarbiya ko‘rgan bo‘lib voyaga yetmaydi”.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ommaviy madaniyat befarq, fikrsiz, manqurt ommaviy shaxsni vujudga keltiradi. Ezgu maqsadlarimiz mujassam bo‘lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida bunday shaxslarga va ma’naviyatimizga zid bo‘lgan har qanday qarashlar, g‘oyalarga o‘rin yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Baxtiyor oila”.
2. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmash kuch”.



HAR BIR ISHDA MEHR MUHIM, MUXABBAT MUHIM

Sh.Toshkentboyeva

Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti  
Tasviriy san'at fakulteti 1- kurs  
magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hamma olimlarni qiziqtirib, ko`plab bahs munozaralarga sabab bo`lgan irfon tushunchasi haqida bat afsil ma`lumot olishingiz mumkin. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan, Naqshbandiya tariqatining bosh maqsadidan izohlar keltirib, ifodalashga harakar qilingan.

**Kalit so`zlar:** Irfon, Mashrab, tasavvuf, Naqshbandiya, Navoiy, Xamsa, Farhod, Shirin, so`fiylik, komillik, tariqat, din, go`zallik, fahm.

*Sani ko`rdim hama elni unutdim,  
Jahon lazzatidin ko`nglimsovutdim.  
Qissai Mashrab.*

Insoniyatni eng ko`p o`ylantiruvchi, eng dolzarb, eng muhokamali va ko`plab savollari ochiq qolib ketadigan mavzu bu dunyoning yaralishi, odamzotning paydo bo`lishidir. Bu masalaning chek-chegarasi yo`q. Inson qancha o`ylasa ham o`ylab o`yiga yeta olmaydi. Shunday bo`lsa ham insoniyat cheksizlik sari uzoq yo`l yurdi va yo`l yuradi ham. Shu sababli ilm, fan, turli qarashlar, e`tiqodlar, tushunchalar, umuman olganda ko`z o`ngimizdagি hozirgi dunyo vujudga keldi. “Inson ilk marta o`z atrofini o`rganib hayot va koinot sirlarini bilib olishga intilishi bilan birga ilk irfoniy taxayyullar va tasavvurlar ham yuzaga kelgan ekan. Ilk irfoniy tasavvurlar mifologiya bilan chambarchas bog`liq bo`lsa ham, inson tafakkuri taraqqiyoti bilan yo`g`rilib ketib, o`ziga xos yo`nalishlarga ega bo`ldi”<sup>1</sup> Shu o`rinda irfon tushunchasiga ta`rif berish darkor deb hisoblayman. Sababi kamina yoritmoqchi bo`lgan mavzuning mohiyatini aynan shu so`z tashkil qiladi. Lekin guvohi bo`lishimcha hozirgi kunda bu so`z deyarli ishlatilmayapdi. Irfon forscha so`z bo`lib, donish, ma`rifat, fahmlash, anglash, tushunib yetish degan ma`nolarini anglatadi. A.Sh. Juzjoniyning “Tasavvuf va inson” kitobida irfon so`ziga quyidagicha ta`rif berilgan: “Irfon” so`zi bilish, bilib olish, tanish, qaytadan tanish, tushunish va bilim ma`nolarida ishlatiladi. Bu kalimaning muodili(tengdoshi)yunoncha “sirli” va “g`aybli” ma`nosini anglatadi. Irfon so`zi umumiyy ma`noda, yuzaki ilmga qarshi o`laroq, bir narsani aniq va har tomonlama bilib olishni ifodalaydi. Masalan, “falon kishi orif shoirdir” deganda, u, bu sohada yuzaki ma`lumotlar bilan qanoat qilmay, tasavvuf, adabiyot, she`r va boshqa fanlarga oid ko`p ma`lumotlarni qamrab olgani bildiriladi.<sup>22</sup> Irfon so`zi o`rnida mistika, tasavvuf so`zleri ham qo`llaniladi. Ammo ular orasida bir muncha farqlar mavjud. Irfon kengroq tushuncha hisoblanadi. Tasavvuf so`zi esa istiloh sifatida bir ma`naviy tariqatni (so`fiylik) ifodalaydi. Unga ko`ra nafsni pokizalash natijasida haqiqat yog`dusi inson qalbida porlay boshlaydi. Irfon – haqni tanib olish uchun tanlangan har qanday yo`ldir. Bu fikrlarga xulosa qilib shuni aytalamaniki, tasavvuf irfonning bir yo`nalishi, irfon esa umumiyy, kata tushuncha. Irfonnig lug`aviy ma`nosи birgina tushunchani ifodalasada, lekin bu so`z tashidigan ma`noning cheki yo`qdek. Irfon – muxabbat, sadoqat, e`tiqod, mehnat, aql va insonga xos barcha fazilatlarining yig`indisidir. Najmiddin Komilov “komil inson” nomli maqolasida komil insonga quyidagicha ta`rif beradi: “Komil inson - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, surati saranjom, qalbi ezgu tuyg`ularga limmolim pokiza zot, Navoiy ta`rifi bilan aytganda:

Foniyyasheki, ham so`zidir pok, ham o`zi.

Hush davlat ul kishigaki, aning ko`zi.

Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosidir. Komil inson martabada aqli kull(aqli avval) ga teng. Alloh avval aqli kullni, ya`ni komil insonni yaratdi, Keyin u tufayli

1 A.Sh.Juzjoniy “Tasavvuf va inson” 163-bet.

2 A.Sh.Juzjoniy “Tasavvuf va inson” 10-11-bet.



boshqa mahluqotlar yaratildi.”<sup>1</sup>

Tarixdan bizga ma'lumki komil inson g'oyasini ilgari surgan ko'plab mutafakkirlar bo'lgan. Jumladan sharq mutafakkirlaridan Mir Alisher Navoiyning o'rni bu borada beqiyosdir. Hazrati Navoiy “Xamsa”sining birgina “Farhod va Shirin” dostoniga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bunda komil insonning go'zal she'riy talqinini ko'rishimiz mumkin. Dostonda bosh qahramon Farhod Shirinning ishqida o't bo'lib yonadi, u suygan yori tomon uzoq va mashaqqatli yo'l yuradi, Shirinning yurtiga yetib kelganida, uning xalqi suvsizlikdan qiynalayotgan va bu muammoning yechimi katta tog'ni yo'nish hisobiga bo'lismidan habar topadi. Farhod Shirinning muxabbatiga yetishish yo'lida tog' yo'nishga boshlaydi. U butun vujudi, ongi bilan, borlig'i bilan tog' yo'nadi. Bu tog'ni yo'nish uchun uning butun umri ham yetmaydi aslida. Lekin uning dardiga davo faqat mana shu amaldir. Mana shu komillik sari intilishdir.

Tasavvuf tariqatlaridan biri bo'lush Naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband shaxsini komillik sari intilishning yaqqol namunasi deyishimiz mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrfidagi qishloqlarda so'fiylik bilan o'tgan U ikki marta haj qilgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati bilan – kimxobga naqsh(gul) solish bilan kun ko'rgan. Hizmatkor yoki qul saqlashni gunoh deb bilgan. Ba'zi manbalarda Bahoddin Naqshband 24 yoshida Hirotg'a borib, besh yil istiqomat qilgan. Hirot shahridan o'z vataniga qaytib, ekinchilik bilan shug'ullanadi. Ko'p o'tmay uning mulki ko'payib, Turkistonda eng buyuk mulk egalaridan biriga aylanadi. Uning ekinzorlari 1300tadan oshgan. Abdurahmon Jomiyning bu haqida quyidagicha ifodasi bor:

Xazorash mazra dar zeri kisht ast,  
Ki zodi raftani rohi bihisht ast.

Shuningdek Alisher Navoiy Hayrat-ul Abrorda ushbu mavzuga quyidagidek ishora qiladi:

Mulki jahon mazrasи dehqon ul,  
Balki jahon mulki nigahboni ul.”<sup>2</sup>

Bahouddin Naqshband tasavvufdag'i ilgarigi qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish kongil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa ish, mehnat bilan band bo'laversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan qo'l silkimay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g'oyasi, musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi.

Inson qaysi yo'lidan yurmasin, haq yo'lidan adashmasligi darkor. Agar haq yo'lini tanlaganligiga qalban va aqlan amin bo'lsa, olg'a qadam tashlash kerak. Yurishi, yugurishi kerak. Ammo ko'pincha haq yo'lini tanlash qiyindir, adashish bor, ikkilanish bor. Bundan tashqari yoshlarda oddiy, elamantar bir ishni oxiriga yetkazish sifati yo'q. Boshlangan ishga o'z maromida, mukammal darajaga yetkazishga intilib emas balki “bo'laveradi” falsafasi asosida yakun yasaydilar. O'yashimcha, hozirgi kunda yoshlарimizga mehnatsevarlik yetishmaydi. Ular ko'p yaxshi fikrlar qiladilar, go'zal orzular suradilar. Orzularni maqsad deb biladilar. Aslida esa maqsad qo'yilgandan keying ish bu bitmas tunganmas mehnatdir. Yoshlar bir narsani tushunib olishlari kerakki, hech bir ish qiyinchiliksiz, mashaqqatsiz, g'am-qayg'usiz bitmaydi. Hazrati Navoiy ham “Men g'amni suydim” degan ekanlar. Bilish kerakki inson mashaqqat chekmayaptimi, qiynalmayaptimi, demak u qo'yilgan maqsadi yo'lida hech narsa qilmayapti. Fikrimcha haq yo'lni tanlashda yana bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Agar tanlangan yo'lning o'ziga va o'zidan boshqa har kimga, har narsaga ziyoni bo'lmasa, u tog'ri yo'ldir. Qilinayotgan har bir harakatda bu narsaga amal qilinsa, o'ylaymanki haq yo'lidan adashilmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bahouddin\\_Naqshband](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bahouddin_Naqshband).
2. “Tasavvuf va inson” A.Sh.Juzjoniy. Toshkent “Adolat” 2001.
3. “Xamsa” Alisher Navoiy.
4. “Tasavvuf”, Najmiddin Komilov 2003 yil

1 Kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/najmiddin-komilov-inson.html.

2 “Tasavvuf va inson” A.Sh.Juzjoniy. 65-66-bet.



## O’ZBEKISTONDA MAFKURAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA DIN OMILI

**Umurzakov Uyg‘un Abdusalipovich**  
O’zbekiston Respublikasi Qurolli  
Kuchlari Akademiyasi o‘qituvchisi,  
O’zMU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda din omilining ta’siri, diniy qarashlar, tolerantlikning roli xususida so’z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Din, g’oya, mafkura, tolerant, e’tiqod, urf-odat.

### KIRISH

Malumki O’rta Osiyo, xususan O’zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo’lgan, xilma-xil dirlarga e’tiqod qiluvchi, bir-biriga o’xshash bo’limgan bir nechaxalqlar yashagan o’lkadir. O’zbekistonning jogrofiy nuqtai nazaridan muhim savdo yo’llari chorrahasida joylashgani, ko’plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani turli xalqlarning diniy va manaviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrdagi urf-odatlar ham o’zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli tasir ko’rsatgan. Bu esa o’ziga xos millatlararo ham jihatlik va diniy bagrikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qilgan. Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Turli millat va elat vakillari uchun esa bir qanchamilliy-madaniyat markazlari faoliyat yurgazib kelmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O’zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro’yobga chiqarilmoqda. Bundan tashqari, O’zbekistonda bugungi kunda musulmonlar uchun 2000 dan ziyod masjid va 10 ta o’quv yurtlari faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati hududida esa 200 ortiq masjid rasmiy ro’yxatdan o’tgan. Ilmiy manbalar O’zbekiston — ilk diniy qarash va tasavvurlar yuzaga kelgan eng qadimiy o’lkalardan biri ekanidan dalolatberadi. O’lkamizda qadim zamonlardanoqzardushtiylik, budizm, yahudiylilik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega bolgan dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganlar. Ayni shu zaminda ko’p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko’chmanchi xalqlar o’troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniyilar va yahudiylar bilan ko’p asrlar birga yashab kelganlar.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, jamiyat hayotining barcha jabhasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar o’z samarasini berayapti. Binobarin, istiqlol yillarda Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o’rtasida o’zaro hurmat, tenghuquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg’unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O’zbekistonning obro’si oshib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o’zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlikmuhitini yaratish orqali ta’minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog’liq inqirozga duch kelgan bir sharoitda ko’plab mintaqalarda millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlar kuchayayotganiga guvoh bo’lmoqdamiz. Shu bois, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. O’zbekistonda aholining ko’p millatli bo’lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg’unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O’zbekistonning obro’si oshib bormoqda<sup>1</sup>.

O’zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyatini yaratishga kirishilgan hozirgi o’tish davrida diniy bag’rikenglik qanchalik muhim bo’lsa, diniy bag’rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g’oyalari, o’z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o’rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag’rikenglik g’oyasini to’g’ri tushunishgayordam berib, barcha kishilarni e’tiqodidanqat’iy nazar

1 Mo’mnov A, Yo’doshxo’jayev H “Dinshunoslik”, Toshkent-2013. 45-b.



birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka hech qanday o’rin qolmaydi<sup>1</sup>.

Respublikamiz aholisining milliy qiyoqasi faqat Sharq emas, balki, Garb sivilizasiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islam, xristianlik va boshqa dinlarga e’tiqod, an’ana va urfodatlar, rangbarang turmush tarzidan iborat ma’naviy mezonlarni o’zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o’tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bogaiq orzu umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik barrikenglik qardoshlik tuyg’ulari uyg’unlashgan tarzda namoyon bo’ladi<sup>2</sup>.

## NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Ruspravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rimkatolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yaxudiyalar jamoasi, 7 ta bahoylar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

## XULOSA VA MUNOZARA

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik isломning asl mohiyati bo'lган bag'rikenglikka zid bo'lгaya harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va garazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir—dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari” kitobida dinning jamiyat hayatida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: “Biz din bundan buyon ham aholini oliv ruhiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafborimiz. Lekin biz hyech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yamaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorliga uchun jiddiy xavfxatar deb hisoblaymiz”.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi.

Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,Toshkent-2012;
2. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi,1995;
3. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi,1948;
4. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonun,1998;
5. Yovqochev Sh.A "Siyosat va din" o'quv qo'llanmasi;2018
6. Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari",Toshkent-2017
7. Mo'minov A, Yo'doshxo'jayev H "Dinshunoslik",Toshkent-2013
8. Yovqochev Sh.A. Siyosat va din. o'quv qo'llanma. 2019

1 Narbekov A.V "Dinshunoslik asoslari",Toshkent-2017. 51-b.

2 Yovqochev Sh.A "Siyosat va din" o'quv qo'llanmasi;2018. 25-b.



## SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF JADID SCHOOLS IN TURKESTAN

Begbudieva P.Sh.

Senior Teacher of the Department of English Language and  
Literature Samarkand State Institute of Foreign Languages

+998933364648

e-mail: parvinabegbudieva@gmail.com

**Abstract:** The article analyzes the general direction of development of the socio-political cultural and educational views of representatives of the jadid movement, in particular, the evolution of views on spirituality, morality, culture, education system in the early XX centuries.

**Key words:** Education, jadid movement, national liberation, Usuli Jadid, modernization.

In the beginning of the XX century it was a period of socio-political, cultural and educational changes in the life of the Uzbek people. Representatives of the Jadid movement fully realized that enlightenment was the only force that could save the country from the inevitable catastrophe, and radically changed the education system, creating a new school.

Our ancestors, such as Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Abdulhamid Cholpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiri, Haji Mu'in, worked hard and struggled to turn the national idea into a sustainable force.

Their idea was to enlighten our people, prepare them for self-realization, and thus ensure national liberation.

The first “usul jadid” schools were opened in Tashkent’s Shaykhovand Tahir and later in various other districts of the city. Munavvarqori Abdurashidkhonov led a continuous process from the day-to-day educational work of such schools, to the organization of annual final exams, from teaching the method of “savtiya” to talented young teachers, providing schools with modern textbooks and manuals and creating new textbooks.

Haji Mu'in opened a new school in 1903 in Khoja Nisbatdor mahalla of Samarkand, deeply aware that raising the enlightenment of the nation was a way to get rid of oppression and darkness, was a sinking subject, and the lesson to the nation was written in purpose.

The number of new “Usul Jadid” schools has increased significantly due to the efforts of local schoolchildren and like-minded intellectuals. This was a matter of great concern to the colonialists.

The governor's administration feared that Usuli Jadid schools would be closed or banned altogether, as this would lead to the secret organization of such schools, especially in the face of strong local protests, and would allow many young people to study abroad, primarily in Turkey.

The opening of “method savtiya” schools by local teachers was strictly controlled by the tsarist administration. In this regard, in 1909, a special commission under the Turkestan district developed a special “Order”. The order included the following issues:

Local schools were opened with the special permission of the tsarist administration. Only Russian citizens who were politically credible are allowed to open and teach in local schools. Wherever a local school is opened for children, its teachers must also belong to that nation. Only books published with the permission of Russian censorship were taught in local schools.

Officials working in the administrative police departments were tasked with keeping a clear list of all local Muslim schools and preventing unregistered schools from operating.

Those who open a school without a special permit will be permanently deprived of the right to open a school and teach.

Local administrators and school supervisors are responsible for overseeing the teaching process in local schools and compliance with the procedures in place. [3]

All the articles of the order serve as a major barrier to schools being opened for children of local nationalities. According to the third article, the teacher who opens the school must also belong to the ethnic group to which the students belong. Thus, the “Usul Jadid” schools opened and being opened by Tatars from inner Russia were stopped.

The teacher leads the human child to true maturity. The crisis, decline, prosperity and prospects of any society are measured by its attitude to school, education and especially to the teacher. Named “Usuli Jadid”, “Usul Savtiya” (sound method) is based on sound methodology., considered teaching the basics of the Muslim religion as a crucial issue.Because they knew that the main



means of preserving the identity of the nation was the mother tongue and national literature. The issue of nationality has played a decisive role in the activities of such thinkers as Mahmudhoja Behbudi, Munavvar Qori, Abdullah Avloni.

At the heart of the work of modern thinkers were anti-colonial goals, the idea of national independence, which was not to the liking of the white and red empires. The Soviet government pursued a policy of extreme destruction against them, both physically and spiritually, and in twenty years almost all of them became victims of repression. Today, in our free country, which the Jadids dreamed of, great attention is paid to strengthening the national base of the education system, harmonizing it with modern requirements. In fact, the principles of the national idea, the creation of textbooks and manuals reflecting the most advanced examples of the nation's thinking, perfect knowledge of foreign languages, the introduction of vocational training have inspired Jadidism in their time, and their direct efforts to lay the foundation for modern intellectual development. served

#### List of used literature

1. ЎзР МДА И-47- фонд, 1 - рўйхат, 926 мш, 109 - варак.
2. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Учинчи китоб. Т.: Ozbeldston - Б. 113-114.
3. Ashurova X. POLITICAL VIEWS OF BEHBUDI AND TURKESTAN JADIDS // Конференции. – 2021.
4. БЕҲБУДИЙ М. Мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия.-Самарқанд:- Типография Г.И.Демурова.1906 йил,103-бет.
5. Sagdullaevna A. K. SOME THOUGHTS ON THE HISTORY OF COMING INTO EXISTENCE OF JADIDISM //INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. – 2020. – Т. 1. – №. 5. – С. 146-150.
- Ashurova X. Political views of Behbudi and Turkestan jadids. *International conference: “Mahmudkhodja Behbudi and press of jadids”* Published by Research Support Center Section 1: Journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudi. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.901.49-54>.
6. Ашуроева X. Махмудхужа Бехбудий маънавий меросида сиёсий карашларга ёндошув. Махмудхўжа Бехбудий - ўзбек жадидчилигининг асосчиси. (Республика илмий-амалий конференция материаллари) 20 ноябрь 2020 йил. 158-160-betlar.
- 8.Бегбудиева П.Ш. Жадидчилик педагогик карашлари вужудга келишининг тарихий зарурити. Илм сарчашмалари 8.2021.,48-50б.
9. Бегбудиева П.Ш. To the question about the sources of the educational views of M.Behbudi. *International conference: “Mahmudkhodja Behbudi and press of jadids”* Published by Research Support Center Section 1: Journalistic legacy of Mahmudkhoja Behbudi. <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.901.49-54>.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 2-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000